


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”



**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha
prorektor
G. Abduraxmanova**

“ ” _____ 2026-y.

**YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR BIZNES KAFEDRASI
08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni**

DASTURI

TOSHKENT - 2026

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2026 yil "26" *avgust* *N^o 1* Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasining 2026 yil "27" *08* *1* – sonli majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri



E.Ergashev

Tuzuvchilar:

E.I.Ergashev	TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasining mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Z.T.Abdalova	TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi
N.S.Dexkanova	TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
Y.O.Uralov	TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasida professor, i.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

B.E.Tagayev	O'zMU, "Mintaqaviy iqtisodiyot va menejment" kafedrasining mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
X.S.Asatullayev	TDIU, "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo'lmoqda. Ushbu strategik maqsadlarga erishishida hududlarning mavjud ichki imkoniyatlaridan keng foydalanish, hamda mintaqalarning yalpi hududiy mahsulotlarning tarkibiy tuzulishini yanada rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatkish sohalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

O'zbekistonning zamonaviy mintaqaviy siyosati mintaqalarni tadqiq qilishning nazariy-metodologik bazasini tizimlashtirish hamda hududiy ishlab chiqarish komplekslari, iqtisodiy rayonlashtirish, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish konsepsiyalariga asoslanmoqda.¹ Mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiyotini globalashtirish bosqichida strategik qarash va dasturiy chora-tadbirlar ishlab chiqish metodologik va amaliy jihatlarini tadqiq qilishning zarurligini ko'rsatmoqda. Hozirda Markaziy Osiyo bilan Janubiy Osiyoni samarali va xavfsiz bog'laydigan transport-logistika infratuzilmasini barpo etish, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, terrorizm, ekstremizm va transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirish, ekologiyani asrash, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish dolzarbligini, Markaziy va Janubiy Osiyoning turizm salohiyatidan keng foydalanish maqsadida turoperatorlarning yagona platformasini shakllantirish, jahon sayyohlik tashkiloti ishtirokida mintaqada turizmni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsion va madaniy-gumanitar sohalarida mintaqaviy bog'liqlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan imkoniyat va tashabbuslar muhim ahamiyatga egadir.²

Mamlakat muayyan hududlar yig'indisi hisoblanganligi bois, mamlakatdagi har bir hududning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish va uzluksiz taraqqiyotini ta'minlab beruvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda uning ta'sir yo'nalishlarining tahlili asosida tavsiya, taklif va amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Qolaversa, butun dunyoda kechayotgan siyosiy inqiroz ham alohida mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotini muntazam kuzatib borish va uni xalqaro iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga moslashtirishni ta'minlash mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishning muhim shartidir.

Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi hamda unda erkin bozor munosabatlarining joriy etilishi milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishiga imkon beradi. Mamlakatdagi har bir hudud o'zining iqtisodiy salohiyatiga asoslanib ish yuritishi, mavjud ichki resurslardan oqilona foydalanishi va dunyo miqyosida respublika nufuzining oshishiga o'z hissasini qo'shishi orqali mintaqaviy iqtisodiyotni taraqqiy etib boradi. Mintaqaviy nuqtai nazardan barqaror rivojlanishning nazariy va amaliy imkoniyati viloyatning barcha sanoat tarmoqlarini rivojlantirish hamda o'zaro mintaqaviy mutanosiblikni to'g'ri yo'lga qo'yish bilan hal etiladi. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdan tashqari mintaqadagi mutanosiblik va dinamik o'zgarish ham muhim hisoblanadi. Bu o'rinda aytish joizki, mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish ko'p jihatdan uning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

² <https://president.uz/uz/lists/view/4483>

samarali tashqi savdosini olib borishni, barcha hududlar va sektorlarning eksport salohiyatini muttasil oshirib borishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga asoslanib, mutaxassislarning kasbiy mahoratini ko'tarish va malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi.

Dasturda qo'yilgan mavzu va masalalar 08.00.12-"Mintaqaviy iqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha talabgorlarning faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab etadi.

1-mavzu. "Mintaqaviy iqtisodiyot" ning predmeti va tadqiqot usullari

"Mintaqaviy iqtisodiyot" fanining obyekti va predmeti. Mintaqaviy iqtisodiyotning maqsadi va vazifalari. Mintaqaviy iqtisodiyotning fanlar tizimidagi o'рни va iqtisodiy fanlar bilan aloqasi. "Hudud", "rayon", "mintaqa" tushunchalarining mazmun-mohiyati. Olimlarning mintaqa tushunchasiga munosabati. Mintaqa funksional tizim va ilmiy tadqiqot predmeti sifatida. Fanning tadqiqot usullari. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sharoitida mintaqaviy yondashuvning mazmun - mohiyati.

"Mintaqa", "hudud", "iqtisodiy hudud", "iqtisodiy hudud rivojlanishi", "iqtisodiy rayon", «iqtisodiy rayonning barqaror rivojlanishi» atamalarining mohiyati. Mintaqalarning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi roli. Mintaqa - mamlakat yagona xalq xo'jaligi majmuasining hududiy kichik tizimi, hududning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, uzluksiz taraqqiyotni ta'minlab beruvchi ichki va tashqi omillar. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining fanlar tizimida tutgan o'рни. Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida, hududlar iqtisodiyotini va hududlararo iqtisodiy aloqalar, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalari. Mintaqaviy iqtisodiyotning tadqiqot usullari.

2-mavzu. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari va tamoyillari

Ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy shakllari. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy va hududiy tashkil etilishi. Mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish nazariyalari. A.G.Granbergning "Mintaqaviy iqtisodiyot asoslari" yondashuvlari, I.Tyunenning "Qishloq xo'jalik shtandorti" nazariyasi, A.Veberning "Sanoat shtandortlari" nazariyasi, A.Lyosh va U.Ayzardlarning "Joylashtirish" nazariyalari, F.Perruning "O'sish qutblari va rivojlanish markazi" nazariyasi, V.Kristallerning "Markaziy o'rin" nazariyasi. Ma'muriy-hududiy birlik, siyosiy-ma'muriy birlik. Iqtisodiy rayonlashtirish tamoyillari, rayon hosil qiluvchi omillar. Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va tarixiy, demografik, milliy, diniy, ekologik, tabiiy-resurs xususiyatlari.

3-mavzu. Hududiy tahlil uslublari va mintaqaviy rivojlanishni modellashtirish

Hududiy tahlilning statistik bazasi. Hududiy tahlil uslublari va mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi. Hududlarning tipologiyasi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish differensiya darajasini baholash. Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash va uning usullari. Bir va ko'p omilli prognoz usullarining maqbulligi.

4-mavzu. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi va ularning mintaqaviy rivojlanish xususiyatlari

Ma'muriy-hududiy birliklarning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari. Davlat tuzilishi va uning shakllari. Ma'muriy-hududiy bo'linish, tuman, viloyat. Davlat suvereniteti, yagona oliy organlar tizimi va qonunchilik tizimi. Markazlashgan va markazlashmagan unitar davlat. O'zbekistonda ma'muriy - hududiy birliklarning tashkil etilishi. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish siyosati. Anklav hududlar. O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi ma'muriy-hududiy bo'linishi va uning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini amalga oshirish tamoyillari.

5-mavzu. Mintaqalar tabiiy-resurs salohiyati va ularning hududiy taraqqiyotda tutgan o'rni

Tabiiy resurs, tabiiy sharoit, tabiiy boylik, foydali qazilma tushunchalari. Tabiiy resurs salohiyati va uning iqtisodiy mohiyati. Tabiiy resurslar klassifikatsiyasi. O'zbekistonning mineral-xomashyo resurslari va ularning hududiy joylashuvi. Mamlakatning mineral-xomashyo resurslariga bo'lgan ehtiyoji. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish. Respublikaning umumiy zaxirasi. O'zbekistonda tasdiqlangan zaxiralar va istiqbolli konlar. Mineral-xomashyo resurslari ichki va tashqi bozorning iste'mol obyekti. Yer-suv resurslari va ulardan samarali foydalanish usullari.

6-mavzu. Mintaqa iqtisodiyotining ixtisoslashuvi va uni kompleks rivojlantirish

Sanoat ishlab chiqarishining mohiyati. Sanoatning shakllanish bosqichlari. Mintaqaviy sanoatning tarmoq va hududiy tarkibi. Sanoatning texnologik tarkibi. O'zbekiston Respublikasi hududlari sanoatining o'ziga xos xususiyatlari. Sanoat kompleksining industrial qiyofasi. Mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishining YHMdagi ulushi va undagi o'zgarishlar. YHM tarkibidagi sanoatning ulushi bo'yicha mintaqalar tabaqalanishi. Qishloq xo'jaligi va uning tarmoq tarkibi. Tabiiy-iqlim sharoitining tutgan o'rni. Qishloq xo'jaligi rivojlanishining hududiy xususiyatlari va ixtisoslashuvi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iste'mol bozoridagi o'rni.

7-mavzu. Mintaqalar aholisi va mehnat resurslari

Aholining o'sish dinamikasi. O'zbekiston mintaqalarining demografik holati. Aholi bandligining mintaqaviy xususiyatlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Mintaqada mehnat bozori. Mehnat bozorini tartibga solishning hududiy asoslari, uni takomillashtirish yo'llari. Mehnat resurslari balansi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari. Ishsizlik, uning mintaqalardagi holati. Ishsizlikni kamaytirish yo'llari.

8-mavzu. Mahalliy va mintaqalar moliyasi va uni tartibga solish

Moliyaviy-hududiy budjetlarning asosiy moliya manbai. Hududiy moliyaning mohiyati va tarkibi. Mahalliy budjet mahalliy boshqaruv organlarining asosiy moliyaviy manbaidir. Mahalliy budjet, uning tushumlari va xarajatlari. Mahalliy soliqlar va ularning yo'nalishlari. Mol - mulk solig'i. Mol – mulk solig'ining mahalliy budjetdagi roli. Budjet jarayoni. Budjetlararo munosabatlar. Mahalliy budjetning respublika budjetidagi ulushi. Mahalliy budjetdan tashqari fondlar, hududiy o'z-o'zini moliya bilan ta'minlash, hududlarning moliyaviy resurslari.

9-mavzu. O'zbekiston mintaqalarida sanoat tarmog'ini rivojlantirishning hududiy jihatlari

O'zbekiston sanoatining tarmoqlararo mintaqaviy tarkibi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi. Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning shart-sharoitlari. Sanoatning hozirgi tashkil etishning zamonaviy shakllari. Hududlarda innovatsion siyosat va uni joriy qilish yo'llari. Strategik ahamiyatga ega tarmoqlarning milliy iqtisodiyotdagi roli. Metallurgiya majmuasi. Kimyo va qurilish materiallari sanoati. Yengil va oziq-ovqat sanoati rivoji.

10-mavzu. Qishloq xo'jaligining hududiy ixtisoslashuvi

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining hududiy xususiyatlari va ixtisoslashuvi. ASK tushunchasi, tarkibi va uni boshqarish. ASK siyosatidagi ustivorliklar. Respublika qishloq xo'jaligini isloh qilish jarayoni. Qayta ishlash korxonalari joylashuvi va ixtisosligi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida qishloqdagi mulkdor va tadbirkorlarning ahamiyatini oshirish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

11-mavzu. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi va tartibga solish masalalari

O'zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Mintaqalar iqtisodiyotiga to'g'ridan-tug'ri investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari. Mintaqalarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni kengaytirish yo'llari. O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, hududlarning iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari. Kichik tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo'llari, kichik biznesning mamlakat rivojlanishidagi ahamiyati. Kichik korxonalar rivojlanishidagi xorijiy tajribalar. Kichik korxonalar samaradorligi. Kichik korxonalar chegaralarini aniqlash mezonlarini belgilash.

12-mavzu. Hududlarning iqtisodiy salohiyati va barqaror o'sish

Hududiy - iqtisodiy salohiyat tarkibi va uning tahlil qilish uslublari. Hududiy bozorlarning shakllanishi va ularning o'zaro aloqasi. Hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari. Hududiy barqaror o'sishning

mohiyati va tushunchasi. Hududiy barqaror o'sishni baholash indikatorlari. Hududlarda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari.

13-mavzu. Mintaqa iqtisodiyotini tartibga solishning xorij tajribasi

Mintaqa iqtisodiyotini tartibga solishning mohiyati va xususiyatlari. Mintaqa iqtisodiyotini tartibga solishning institutsional va huquqiy asoslari. Mintaqaviy rivojlanish dasturlari. Mintaqa iqtisodiyotini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlari. Maxsus iqtisodiy hududlar va klaster mexanizmi. Mintaqaviy rivojlanish muammolari va tabaqalanish. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirish. Hududlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari, aholi manzilgohlarini rejalashtirish va urbanizatsiya.

14-mavzu. Ishlab chiqarish va axborot - kommunikatsiya infratuzilmasi rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlari

Axborot - kommunikatsiya infratuzilmasi tushunchasi va uning mazmun - mohiyati. Infratuzilma va uning shakllari. Yo'l-transport kommunikatsiyalari va uning tarkibiy tuzilmasi. O'zbekiston transport tizimi va uning rivojlanish xususiyatlari. Transport - kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik. Transport tizimining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar. Logistika xizmatlarini takomillashtirish va xalqaro integratsiya jarayonlarini jadallashtirish. Transport sohasida yagona davlat siyosati. Transport to'rini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari. O'zbekistonning Halqaro ekspeditorlar uyushmasi federatsiyasi, ESKATO, TRASEKA va boshqa bir qancha xalqaro tashkilotlar a'zoliqi. Yuqori texnologik telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.

15-mavzu. O'zbekistonning respublika, mintaqa, va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi vakolatlarni taqsimlash mexanizmi

"Davlat boshqaruvi", "mintaqaviy boshqaruv" va "mahalliy boshqaruv" tushunchalarining mazmun - mohiyati. O'zbekistonda Respublikasi mintaqa va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni o'zaro manfaatli asosda taqsimlash zarurati. Mahalliy tuzilmalar faoliyatida muammolar va ularning yechimlari. O'zbekistonda respublika mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash tamoyillari. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish sohasida qonunchilik faoliyatini takomillashtirish strategiyasi. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan konstitutsiyaviy vakolatlarni amalga oshirish shakllari.

16-mavzu. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat

Mintaqaviy siyosat va mintaqaviy iqtisodiy siyosat tushunchalarining mazmun mohiyati. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning maqsad va vazifalari. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish usullari va dastaklari. Mintaqaviy siyosat yo'nalishlari. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar va ularni tatbiq etish yo'llari. Ma'muriy-hududiy birliklar doirasida amalga oshirilayotgan mintaqaviy iqtisodiy siyosat.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatda erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o'ri. Kichik sanoat zonalar va texnoparklar tashkil etishning me'yoriy-huquqiy va iqtisodiy asoslari. Hududiy moliyaviy vositalarning shakllanish manbalari, mahalliy budjet, munitsipal mulk hisoblanuvchi korxonalarning moliyaviy resurslari, korxona va tashkilotlarning ijtimoiy-madaniy va uy-joy-kommunal obyektlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lari.

17-mavzu. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish mexanizmlari

Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tartibga solishning maqsadi va vazifalari. Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida davlatning mintaqaviy siyosati va hududiy - boshqaruv organlari faoliyati. Hududiy - iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari. Hududlar rivojlanishining asosiy indikatorlari. Hududdagi bandlik, ishsizlik, hudud aholisi sonidagi bandlik hisssasi, mehnat unumdorligi. Hudud aholisining daromadlari. Hudud aholisining turmush darajasi va uni belgilovchi omillar. Ijtimoiy infratuzilma. Hudud investitsion jozibadorligi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.

18-Mavzu. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlantirish strategiyalari

Mintaqadagi demografik vaziyat. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'rta va uzoq muddatli istiqbollari. Ilmiy texnika yutuqlarining kelajakdagi holati va ularni ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyati. Asosiy ishlab chiqarish omillari. Aholining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabining miqdori va dinamikasi. Aholining tovar va xizmatlarning alohida turlariga bo'lgan talabi. Mintaqaviy rivojlanishni strategik rejalashtirish. Hududiy - innovatsion rivojlanish strategiyalari.

19-mavzu. Mintaqalar raqobatbardoshligi va raqobat ustunligi

Raqobat, raqobatbardoshlik va raqobat muhiti tushunchalari hamda ularning iqtisodiy mohiyati. Mintaqalar raqobatbardoshligini baholash usullari. Raqobatbardoshlikning iqtisodiy diagnostika natijalari. Mintaqa darajasida raqobatbardoshlikni oshirish jarayonini boshqarish tizimi. Mintaqalarni uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyalari. Mintaqalar raqobat ustunligi va uni aniqlash yo'llari. Mintaqalar raqobat ustunligining hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'ri. Hudud raqobat ustunligini belgilovchi omillar. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mazmuni, mohiyati va uning rivojlanish xususiyatlari. Mintaqalarning eksport salohiyati. Eksport tarkibi va undagi o'zgarishlar. Tashqi savdo saldosi. Mintaqalarda qo'shma korxonalarning rivojlanishi. Tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish yo'llari.

20-mavzu. Hududlar taraqqiyotining ekologik jihatlari va tabiatdan foydalanishning mintaqaviy muammolari

Ekologiya, tabiat, tabiiy resurs, tabiiy sharoit, tabiiy boylik tushunchalarining iqtisodiy mohiyati. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar. Tabiatdan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari. Atrof –muhitni muhofaza qilishning ijtimoiy - iqtisodiy jihatlari. Atmosferani muhofaza qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish. Mintaqalarda atrof - muhitni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha hamkorlik. Sanoat markazlaridagi atmosfera ifloslanish indeksi va uning dinamikasi. O'zbekiston va uning hududlarida biologik xilma-xillikni saqlab qolish yo'llari. Statsionar manbalardan chiqadigan chiqindilar. Atmosfera havosining ifloslanishiga harakatlanuvchi manbalarning ta'siri.

21-mavzu. Dunyo xo'jaligining mintaqaviy xususiyatlari

Dunyo xo'jaligining shakllanishi va uning asosiy bosqichlari. Xalqaro mehnat taqsimoti. Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Dunyo mamlakatlarining eng muhim iqtisodiy guruhlari. Yirik mintaqalar - qit'alarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sikllari. Dunyo xo'jaligining asosiy markazlari va ularning siljishi qonuniyatlari.

22-mavzu. Erkin iqtisodiy hududlar

Erkin iqtisodiy hududlar tushunchasi. Erkin iqtisodiy hududlar tipologiyasi. Erkin iqtisodiy hududlar tashkil etishdan ko'zlangan maqsadlar va ularning mintaqaviy rivojlanishga ta'siri. Erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish va rivojlantirishning xorij tajribasi. Erkin iqtisodiy hududlar – O'zbekiston mintaqaviy siyosatining instrumenti sifatida. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarning shakllanishi va rivojlanishi. Erkin iqtisodiy hududlar rivojlanishidagi muammolar va istiqbollar.

23-mavzu. Mintaqalarda atrof - muhitni muhofaza qilish

Atrof – muhitni muhofaza qilish. Atmosferani muhofaza qilish. Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish. O'rmonlarni saqlash yo'llari. Cho'l zonalarini o'zlashtirish, qurg'oqchilikka qarshi kurash. O'zbekiston va uning hududlarida biologik xilma-xillikni saqlab qolish yo'llari. Tog' hududlarini o'zlashtirish va rivojlantirish yo'llari. Atmosfera havosining ifloslanishi. Statsionar manbalardan chiqadigan chiqindilar. Atmosfera havosining ifloslanishiga harakatlanuvchi manbalarning ta'siri. Chegara bo'yi hududlarida atmosfera havosining ifloslanishi. Suv resurslarining holati va ulardan foydalanish.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.:2023. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022—2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/5841063>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonolari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3356-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/3392861>.
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida. O'RQ-599-sonli, 2019 yil 30 dekabr. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
6. O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/acts/2304138>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5853-sonli farmoni. lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/ru/docs/4574008>
9. "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni 2019 yil 13 avgustdagi O'RQ-552 - sonli qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 iyuldagi PF-6019-sonli farmoni 1-ilova. 2020-2024 yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi. - <https://lex.uz/docs/4887654#4889230>
11. G.M.Shadieva, T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov, Z.S.Artikov, L.U.Maxmudov, A.P.Xazratov, D.S.Musinov. Mintaqaviy iqtisodiyot. [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: «FAN BULOG'I» nashriyoti, 2023 - 442 bet.
12. I.O.Yakubov. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik.-T.:«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 - 280 b.
13. Qosimov M.S. Global va mintaqaviy iqtisodiyot. (o'quv qo'llanma). T.: "innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi". 2022. 154-b.

14. Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N., "Mintaqaviy iqtisodiyot" -T.;TDIU, 2019y. -228b.
15. Nazarov Sh. Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv. Monografiya. Toshkent, "Renessans" nashriyoti, 2021y.
16. Burxanov A., Rahmatov K. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. T.:2019.
17. Ishmuhamedov A.E., Raximova M.R. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 234 b.
18. Marahimov U.A. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. Andijon 2020. 190-b.
19. Romer D. Advanced Macroeconomics. 5th ed. McGraw-Hill, 2018. - 800 p. — ISBN 1260185214.
20. M.Armstrong, J.Taylor. Regional economics and policy. 3 edition. WilleyBlackwell publisher, 2010- 448 p.
21. Roberta Capello. Regional Economics. USA: Routledge, 2016.
22. R Capello, Mintaqaviy iqtisodiyot 2-nashr, Routledge, 2016
23. R Crescenzi & M Peroco geografiyasi, institutlari va mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar, Springer, 2013
24. Vedyapina V.N. Regionalnaya ekonomika. - M.: «INFRA», 2008. – 510 str.
25. Jones S iqtisodiy o'sishga kirish 2-nashr, Norton 2001; P Makkenning shahar va mintaqaviy iqtisodiyoti, OUP 2001;
26. Pike, A. Rodnguez-Pose A. & Tomaney J. Mahalliy va mintaqaviy rivojlanish 2-nashr, Routledge, 2017 - yil.
27. Krutikov V.K., Arakelyan S.A., Dorojkina T.V., Kostina O.I., Fedorova O.V. Regionalnaya ekonomika. Uchebno-metodicheskoe posobie. Kaluga: Izd-vo «Eydos», 2015. – 202s. ISBN 978-5-905697-94-4
28. www.gov.uz.
29. www.lex.uz.
30. www.uza.uz.
31. www.stat.uz.
32. www.mfer.uz.